

ZAYNAB OBRAZIDA RUHIY INQIROZ VA ADASHUV MOTIVI

Mavlonova Oyjamol Kozimjon qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti ixtisosligi 1-bosqich
tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada “O’tkan kunlar” romanidagi Zaynab obrazi psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Obrazning ruhiy inqirozi, ichki ziddiyatlari hamda adashuv motivining yuzaga kelish sabablari yoritiladi. Shuningdek, Zaynab xarakterida muhabbatga ehtiyoj, rashk, yolg’izlik va ma’naviy iztirobning namoyon bo’lishi badiiy misollar asosida ochib beriladi. Maqolada qahramonning fojiaiy taqdiri orqali inson ruhiyatidagi murakkab kechinmalar va noto’g’ri tanlovlarning oqibatlari tahlil etiladi.

Kalit so’zlar: Ruhiy inqiroz, adashuv motivi, psixologik tahlil, rashk motivi, ichki konflikt.

“O’tkan kunlar” o’zbek romanchiligining yuksak namunasi bo’lib, unda inson ruhiyati, jamiyat ziddiyatlari hamda murakkab taqdiralar chuqur tasvirlangan. Asarda Zaynab obrazi alohida psixologik qatlamga ega bo’lib, uning ichki kechinmalari ruhiy inqiroz va adashuv motivi bilan chambarchas bog’langan. Muallif Zaynab xakteri orqali sevgi, rashk, yolg’izlik va ma’naviy iztirobning inson taqdiriga qanday ta’sir qilishini ko’rsatadi. Zaynabning fojiaiy qismati uning yovuzligidan emas, balki ruhiy bosim, muhabbatga bo’lgan ehtiyoj va noto’g’ri qarorlar natijasida yuzaga keladi. Shu jihatdan obrazni psixologik jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

“O’tkan kunlar” dagi Zaynab xakterining muhim jihatlaridan biri uning ichki tortinchoqligi va “pismiqlik” sifatida namoyon bo’luvchi ruhiy holatidir. Adib bu xususiyatni qahramonning bolalik davridanoq shakllangan xakter belgisi sifatida tasvirlaydi: **"Zaynab egachisining aksicha o'z yaqinlaridan "pismiqlik" deb ism olg'an, onasi bo'lsa achchig'i chiqq'anda "ming'aymas o'lgur" deb uni qarg'ar edi"**²²

Zaynab o’ziga nisbatan bo’lgan nohaqlik va ruhiy bosimlarga ochiq qarshilik bildirmaydi, aksincha ichki iztirobni sukut va yig’i orqali kechiradi: **"...yosh Zaynab bir oy ilgari tikilib qo'yilgan kiyimning o'ziga yoqmag'anini faqat arafa kuni aytib yig'laydir, bu kungi Zaynab o'zining muhabbatini eriga faqat kundashi kelib yetar oldida e'lon qiladir..."** Bu esa uning hissiyotlarini tashqariga chiqarolmaydigan, kechinmalarini ichiga yutadigan xakter egasi ekanini ko’rsatadi. Asarda Zaynabning yaqinlari tomonidan “pismiqlik” deb baholanishi ham bejiz emas. Chunki qahramon o’z istak va noroziliklarini o’z vaqtida ifoda etolmaydi. U uzoq vaqt davomida

²² Abdulla Qodiriy. O’tkan kunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.



ichki kechinmalarini yashirib yuradi va faqat ruhiy bosim haddan oshgandagina his-tuyg'ularini namoyon qiladi. Bu holat Zaynab xarakteridagi ruhiy siqilish va ichki yolg'izlikni yanada chuqurlashtiradi. Zaynabdagi "pismiqlik" oddiy xarakter kamchiligi emas, balki uning ruhiy olamidagi bosim va tushkunlikning tashqi ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi shu orqali insonning o'z dardini ichiga yutib yashashi asta-sekin ruhiy inqirozga olib kelishini badiiy jihatdan asoslaydi.

Zaynab xarakterining yana bir muhim jihati — uning o'z mavqeini isbotlashga bo'lgan ichki ehtiyojidir. Ayniqsa, Kumush bilan munosabatlarda Zaynabning o'zini ustun va e'tiborli ko'rsatishga urinishi yaqqol ko'zga tashlanadi: **"Otabekning ko'zi uyqug'a borg'ach, faqat shuni kutib o'lturg'an Zaynab qo'lida yelpug'ichi bilan yostiq yoniga keldi. Eri juda uxlab ketkandan so'ng yelpiy boshladi... Yelpir ekan, Zaynabning ko'zi Kumushning uyida edi... Zaynab o'zining bu tasodufiy muvaffaqiyatini kundash nazaridan o'tkuzib olmoqchi edi..."** Bu holat qahramon ruhiyatidagi ishonchsizlik va muhabbatga tashnalik bilan bog'liqdir. Zaynab Otabek mehrini to'liq egallay olmaganini his qilgani sari o'zini kundoshiga "ko'rsatish", erining muhabbatini namoyish etish orqali ichki bo'shliqni to'ldirishga harakat qiladi.

Zaynab ruhiy inqirozining asosiy omillaridan biri — muhabbatdagi tengsizlikdir:

Zaynab:

- Rostda axir, siz qo'rqmasangiz ham...

Kumush:

- So'zlay bering.

- Axir...

Zaynab o'zining xatosini ongladi va gapuralmay g'o'ldiradi. Kumush esa buni sezib Zaynabning o'z og'zidan iqrор etdirish ko'yiga tushdi:

- Men tushundim,- dedi,- sen qo'rqmasang ham bo'ladi, ering seni yaxshi ko'radi, demakchisiz.

Otabekning qalbi Kumushga yaqinligi Zaynabni ichki azobga soladi. U o'zini rad etilgan inson sifatida his qiladi. Natijada uning ruhiyatida ishonchsizlik, alam va tajovuzkorlik paydo bo'ladi.

Asarda Zaynabning ayrim harakatlari tashqi tomondan g'urur yoki manmanlik bo'lib ko'rinsa-da, aslida ular ruhiy himoyalaniш shakli sifatida namoyon bo'ladi: ...**Kumush:**

- Sizni nimag'a ishondirg'anlar?

Zaynab:

- Axir... Men sensiz turolmayman, deb sizga ham aytkandirlar...

U Kumush qarshisida o'zini baxtli va ustun ko'rsatishga urinadi, chunki qalban o'zini yetarlicha qadrlanmagan inson deb his qiladi. Shu sababli Zaynabning xatti-harakatlarida tabiiylikdan ko'ra ichki iztirobni yashirishga



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

bo'lgan urinish kuchliroq seziladi: **"...O'zi aslo ishonmag'an shuncha yolg'on gaplarni boyag'i dovdirash holatida ilhom ravishda to'qib yubordi. Uning bu dovdir gaplari g'alaba qozonmoqchi bo'lg'an Kumushni dovdiratti...**

...Zaynab bu yolg'onlash natijasidan qo'rqib, o'ng-u ters ishiga yopishdi..." Qahramon xarakteridagi bu jihat uning ruhiy beqarorligini yanada chuqurlashtiradi. Chunki Zaynab uchun Kumush bilan munosabat oddiy kundoshlik emas, balki muhabbat va qadriyat uchun ichki kurash maydoniga aylanadi, natijada u o'z his-tuyg'ularini tabiiy ifoda etish o'rniga, kundoshiga ta'sir qilish va o'z mavqeini isbotlashga intiladi. Adib shu orqali inson ruhiyatidagi yetishmovchilik hissi ayrim hollarda sun'iy va ziddiyatli harakatlarni yuzaga keltirishini chuqur psixologik asosda tasvirlaydi.

Zaynabning ruhiy inqirozi va fojiaiy adashuvi faqat uning individual xakteri bilan emas, balki atrofidagi ijtimoiy muhit ta'siri bilan ham bog'liq holda tasvirlanadi. Xususan, Xushro'ybibi obrazining Zaynab ruhiyatiga ko'rsatgan ta'siri qahramonning keyingi qarorlarida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi: **"...Xushro'y:**

- O'zing tinchmisan?

Zaynab:

- Tinchlig'im qurisin...

- Aytsang, aytmasang,- dedi opasi, - albatta tinchliging qurig'an.

- Quritg'an qurisin...

-Sening tinchlig'ingni hech kim quritgan emas, Zaynab!

Hamma jabrni o'zing-o'zingga qilayapsan!.."

Xushro'ybibi Zaynabning ichki iztiroblarini yumshatish yoki unga ma'naviy dalda berish o'rniga, aksincha undagi rashk va xavotir hissini yanada kuchaytiradi: **"...Xushro'y kuldi:**

- Bundan nima chiqadi?

- Ishqilib kelgindini tinchitmayman.

- Sen tinchitmasang, - dedi Xushro'y, - boshqalar seni tinchitar...

- U nima deganingiz?

- Ya'ni rohatini buzaversang, ering seni qo'yar..."

Asarda Zaynabning oilaviy munosabatlarga bo'lgan ishonchi tashqi ta'sirlar sabab asta-sekin yemirilib boradi. Ayniqsa, "ering seni tashlab qo'yishi mumkin" mazmunidagi gaplar qahramon qalbida qo'rquv, beqarorlik va ishonchsizlik hissini uyg'otadi. Natijada Zaynab voqealarni sog'lom tafakkur bilan baholash o'rniga hissiyot ta'sirida qaror qabul qila boshlaydi. Bu esa uning ruhiy jihatdan tobora izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Yozuvchi shu orqali inson ruhiyatining jamiyat va yaqin muhit ta'siriga naqadar bog'liq ekanini ko'rsatadi. Zaynabning adashuvi faqat shaxsiy zaiflik natijasi emas, balki uni o'rab turgan muhitdagi noto'g'ri qarashlar, kundoshlik muammosi va ruhiy bosimlarning ham oqibatidir. Ayniqsa, ayolning oiladagi o'rnini faqat er



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

muhabbati bilan o'lashga asoslangan qarashlar Zaynab ruhiyatida chuqur ichki ziddiyatlarni yuzaga keltiradi.

Zaynab ruhiyatidagi ichki tanazzulning chuqurlashishida O'zbek oyimning munosabati ham muhim psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Zaynab o'zini tushunadigan va qo'llab-quvvatlaydigan inson sifatida aynan O'zbek oyimga suyanadi. Biroq keyinchalik uning Kumush tomoniga og'ishi Zaynab qalbida yanada kuchli yolg'izlik va ruhiy tushkunlik hissini yuzaga keltiradi:

"...O'zbek oyim shunday kezlarda Kumushning yonini olib "Zaynabni Xudoy ko'tarsin, ayb o'zida..." deya boshlasa, hoji uning og'zini arang to'xtatur: "Sekin-sekin, uyat! Qayin ona deganning adl turishi lozim. Zaynab siz bilan manim orzu havasimiz emasmidi?"...

Qahramon o'ziga eng yaqin deb bilgan insonning ma'naviy jihatdan uzoqlashayotganini sezgani sari ichki ishonchini yo'qota boshlaydi. Natijada undagi rashk, alam va iztirob hissi yanada keskinlashadi. Adib shu orqali inson ruhiyatida yaqinlar tomonidan tushunilmaslik hissi qanday og'ir oqibatlarga olib kelishini ko'rsatadi. Zaynabning fojiaiy adashuvi nafaqat uning individual xarakteri, balki ma'naviy tayanchdan ayrilishi bilan ham bog'liq holda rivojlanadi. O'zbek oyimning munosabatidagi o'zgarish qahramon ruhiyatidagi beqarorlikni kuchaytirib, uning hissiyotga berilgan holda noto'g'ri qarorlar qabul qilishiga psixologik zamin yaratadi.

Asarda Zaynabning ayrim harakatlari hissiyotga berilgan holda sodir bo'ladi. Bu esa uning aql va hissiyot o'rtasidagi muvozanatni yo'qotganini ko'rsatadi. Ruhiy bosim ostida qolgan insonning noto'g'ri qaror qabul qilishi esa adashuv motivining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Adib Zaynab timsolida inson qalbidagi iztirob nazorat qilinmasa, fojiaga olib kelishini ko'rsatadi. Shu jihatdan obraz psixologik realizmning yorqin namunasi hisoblanadi.

Zaynabdagi adashuv motivi uning rashk ta'sirida noto'g'ri yo'lni tanlashida namoyon bo'ladi. Kumushga qarshi qilingan harakat aslida Zaynabning ma'naviy tanazzul nuqtasidir. Chunki bu qaror nafaqat Kumush, balki Zaynabning o'z hayotini ham fojiaga aylantiradi: **"...Zaynabning tusi shu choqq'acha ko'rilmagan ravishda o'zgarib ketdi. Negadir tinmay oqib turg'an ko'z yoshisi ham quridi va tovshida ham hanuz eshitilmagan keskin bir ohang bor edi:**

- Esimni kiritdingiz, opa, - dedi, - rahmat sizga..."

Yozuvchi Zaynab taqdiri orqali inson ruhiyati izdan chiqqanda ma'naviy halokat yuz berishini ta'kidlaydi. Obrazning fojiasi shundaki, u muhabbat izlab adashadi va oxir-oqibat o'z baxtini ham yo'qotadi:

"...Zaynab yugurib uyga kirdi. Tusi murdadek oqarg'an edi. Otabek Kumushni qo'yib yerdagi atalani oldi:

- Ich muni, ich...!

Zaynab orqag'a tislandi... Otabek kosani unga otdi..



- Ket ..., ket! Taloqsan, taloq!.."

Zaynabning ichki yolg'izligi uning eng katta fojeasidir. U atrofdagilar bilan emas, avvalo o'z qalbi bilan kurashadi. Shu sababli obraz romandagi eng murakkab psixologik qahramonlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, "O'tkan kunlar" dagi Zaynab obrazi murakkab psixologik xarakter sifatida namoyon bo'ladi. Adib qahramon ruhiyatini ochishda uning ichki kechinmalari, yashirin iztiroblari va ruhiy ziddiyatlarini chuqur tasvirlaydi. Zaynabning bolalikdan shakllangan tortinchoqligi, dardini ichiga yutishi hamda his-tuyg'ularini oshkora ifoda etolmasligi keyinchalik uning ruhiy inqiroziga asos bo'ladi. Muhabbatga ehtiyoj, rashk va e'tiborsizlik hissi qahramon qalbidagi ichki beqarorlikni yanada kuchaytiradi.

Asarda Zaynabning adashuvi faqat uning individual xarakteri bilan emas, balki atrofidagi ijtimoiy muhit ta'siri bilan ham bog'liq holda yoritiladi. Xushro'y, O'zbek oyim va oilaviy muhitdagi ayrim munosabatlar qahramon ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning noto'g'ri qarorlar qabul qilishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, yaqin insonlari tomonidan tushunilmaslik va ma'naviy yolg'izlik hissi Zaynabning ichki fojeasini chuqurlashtiradi.

Abdulla Qodiriy Zaynab obrazi orqali inson qalbidagi ruhiy bosim, ichki iztirob va noto'g'ri tanlovlarning fojiaiy oqibatlarini badiiy hamda psixologik jihatdan asoslab beradi. Shu sababli Zaynab obrazi o'zbek adabiyotidagi eng murakkab va fojiaiy ayol obrazlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
2. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
4. Umarali Normatov. Qodiriy bog'i. – Toshkent: Ma'naviyat, 1994.